

## RIM PODSHOLIK DAVRIDA

*Eshniyozova Hulkar Bekmurod qizi*

±998938381324

*Abdimōminov Elmo'min Chori o'gli*

+998339118232

*Qarshiyev Axror Abdusalomovich*

+998907480702

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Annontatsiya :** Ushbu maqolada Rim podsholik davrining boshlanish, boshqaruv organlari, qo'shin tuzulishi kabi manbalar yoritilgan. Latsiyani qadimgi shaharlaridan biri bo'lgan Rim Tibr daryosi o'rta oqimida Etruriyadan janubda joylashgan edi. Boshqa latin shaharlari kabi Rim bir necha kichik urug' qo'rg'onlarini birlashuvi bilan paydo bo'ldi. Er. aw. VIII asrda eng qadimgi shaharlari Lavrent, Lanuviy va Laviniy bo'lgan 30 shahar Alba-Longa shahri boshchiligida Latin federatsiyasini tashkil qildilar.

**Kalit so'zlar:** Rim, Palatin, «pater families», senturiy, «To'rt kvartalli», Sezar.

Rivoyatlarga ko'ra Al'ba-Longani asoschisi Askaniy Yul troya qahramoni Eneyning o'g ii edi. AlbaLonganing o'n to'rtinchi podshosi Numitoming nevaralari aka-uka Romul va Rem rivoyatga ko'ra Tibr qiig'og'idagi Palatin tepaligida yangi shahar Rimga asos soladilar. Romul janjalda ukasini o'ldirib qo'yadi va Rimning yetti podshosidan birinchisi (er. av. 753—715- yillar) bo'ladi. Rimning ilk aholisini sabin-umbr qabilalari tashkil etadi. Romul Rim aholisini 30 kuriyaga bo'ladi, 300 kishilik podsho gvardiyasini tuzib Veya shahrini bosib oldi. Romuldan keyin Numa Pompiliy (er. aw. 715—673-yillar), Tull Gostiliy (673—641- yillar), Ank Martsiy (641—616-yillar), Luqiy Tarkviniy qadimgi (616—578-yillar), Serviy Gulliy (578—534-yillar), Lutsiy Tarkviniy Mag'rur (534—510-yillar) hukmronlik qilganlar. Dastlab Rim aholisi 3 urug'-qabila (Titsiy, Ramn va Lutsern) tribi, 30 kuriya va 300 urug', 3000 familiya (oila)ga bo'lingan. [1]

Triblar etnik farqlanmagan qabilalar birlashmasi bo'lishi mumkin. Kuriya erkak jangchilarni diniy, harbiy va shakllanayotgan siyosiy tashkilotning asosi bo'lgan ibtidoiy birlashmasi, gent podsholik davrida yemirilayotgan urug' jamoasi, familiya-katta patriarxal oila edi. Latinlarning bir necha o'nlab mustahkamlangan markazlari ittifoqqa birlashtirilgan bo'lib, uning boshida Alba-Longa shahri turar edi. Har yili latin jamoalari vakillari hamma uchun umumiy bo'lgan lotin bayramlarini nishonlash uchun Alban tog'i tepaligida to'planar edilar. Barcha latinlar uchun umumiy xudo ma'buda Diana edi. Arxeologik qazilmalarga ko'ra eramizdan avvalgi X asrda latinlarni kichik

guruhi Palatin tepaligining g'arbiy tomonida Tibr daryosi bo'yida kelib joylashdilar. Bu yerda mudofaa devori bilan o'ralgan to'rtburchak shakldagi qishloqlar paydo bo'ldi. Palatinda yashagan odamlar mayitlarni dafn qilmasdan gulxanda yoqar edilar. Bu odat Alba-Longadagi dafn marosimiga o'xshar edi. Bu Rimning ilk aholisini kelib chiqishi Alba shahridan ekanligini tasdiqlaydi. Bir necha o'n yildan so'ng ular qo'shni tepaliklar Seliy va Eskvilinni egalladilar. Er. av. VII-V I asrlarda 285 gektar yerni egallagan Palatin, Seliy, Eskvilin tepaliklaridan boshqa Kvirinal va Viminal tepaliklarini ham qo'shib olindi. Bu tepaliklar va Palatin o'rtasidagi bo'shliq shahar markaziga aylandi. Shu yerda uzoq yuz yilliklar davomida Rim davlat hayoti to'plangan Forum Romanum paydo bo'ladi.[2]

«To'rt kvartalli» shaharni paydo bo'lishida etrusklarni roli katta edi. Ular shaharga Roma (Rim) nomini bergan bo'lishlari mumkin. So'nggi Rim tarixchilarining aytishicha, Rimning eng birinchi podsholaridan biri Serviy Tulliyning kelib chiqishi etrusklardan bo'lib, Serviy Tulliy davrida shahar yanada kengaydi. Kapitoliy va Aventin tepaliklari qo'shib olinib, mustahkam devorlar bilan o'rab olingan. Endilikda Rim eng qudratli latin shahriga aylandi va tezda Latsiy viloyatida Alba Longadan yetakchilikni tortib oldi. Ilk Rim jamiyatining asosi bu — urug' edi. Urug' a'zolari umumiy mulkka ega bo'lib, diniy marosimlarni birgalikda bajarar edilar. Bu qadimgi urug' jamoat tuzilmasining izlari Rim ismlarida ko'rinadi. Rim ismlari uch qismdan tuzilgan: shaxsiy ism, urug'ni nomi va laqab, misol uchun Gay Yuliy Sezar. Bu keyinchalik merosiy bo'lib o'tgan. Vaqt o'tishi bilan urug'chilik aloqalari zaiflashdi, oilaviy aloqalar kuchaydi. Bu aloqalar nafaqat oila a'zolarini, balki xonaki qullarni ham qamrab oldi. [3]

Podsholik davrida qullar hali ham kam sonli edi. Ana shunday patriarxal oila tepasida barcha oila a'zolarining hayoti va o'limi ustidan cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan «pater familius» (oilasi otasi) turar edi. O'sha vaqtda rimning to'la huquqli fuqarolari «Populyus Romanus» (Rim xalqi) shahardagi uch etnik unsur lotin, sabin va etrusklarni aks ettirgan uch tribga bo'lingan edilar. 3 Tribni har biri o'ziga un kuriyani, kuriya esa o'n urug'ni o'z ichiga olgan edi. Shunday qilib Rim tarixchilarining ma'lumotiga ko'ra, Rimning erkin aholisi dastlab 300 urug'dan iborat bo'lgan. Podshoning chaqirig'iga ko'ra, ular kurial yig'inlarikomissiyalariga to'planar edilar. Saylov Kuriyalar bo'yicha o'tkazilar edi Kuriya yig'inlarida urushlar, tinchlik, diniy e'tiqodga oid qarorlar qabul qilinardi. Boshqa lotin shaharlari kabi Rimda ham jamoalar tepasida Kuriya komissiyalarida (xalq yig'ini) saylanadigan podsho turardi. Podsho oldida uning hokimiyati ramzini ko'targan 12 liktorlar borardi.[4]

Davlatni podsho bilan dastlab 100 keyinchalik 300 a'zodan iborat bo'lgan oqsoqollar kengashi- senat boshqargan. Senat komissiyalar qabul qilgan barcha qarorlarni tasdiqlardi edi. Podsho vafot etgan taqdirda senat yangi podsho saylaguncha o'z ichidan har besh kunda bir kishini vaqtinchalik podsho («interreks»)ni tayinlardi edi.

Bu odat keyingi vaqtlarda ham saqlanib qoldi. Rimda oliy mansabdor shaxs konsul vafot etganda ham bu odat qo'llanilar edi. Podsho oliy harbiy boshliq, kohin va sudya bo'lib, zaruriyat boiganda bir qancha yordamchilar-kvestorlarga tayanar edi. Kvestorlar odam o'ldirish ishlari bo'yicha sudni amalga oshirar edilar. Podsho mutlaq hukmdor bo'lmasa-da, etrusklar davrida uning hokimiyati juda kuchli bo'lib, Rim oilasi «pater families» hokimiyatini eslatar edi. An'ana bo'yicha Rim tarixchilari shahar tarixida yettita podshoni aytib o'tadilar. Ular: Romul (er. av. 753—715-yillar), Numa Pompiliy (er. av. 715—673-yillar), Tull Gostiliy (er. av. 673—641-yillar), Ank Marsiy (er. av. 641—616-yillar), Tarkviniy Qadimgi (er. av. 616—578-yillar), Serviy Tulliy (er. av. 578—534-yillar) va Tarkviniy Mag'rur (er. av. 534—509-yillar). [5]

Bulardan kelib chiqishi etrusk bo'lgan oxirgi uch podshoni tarixiy deb aytish mumkin. Urug' tashkilotlari a'zolari rim xalqini (Romanus papulus) tashkil qildi. Boshda ko'chib kelganlar hisobidan to'ldiriladigan Rim fuqarolik jamoasi kuriyalar bo'yicha taqsimlangan edi. Ank Martsiy davrida jamoa yer fondi (ager publusus) zaxiralari tugadi. Chetdan ko'chib keladiganlar endilikda qabul qilinmadi va yopiq jamoa hosil bo'ldi. Natijada qadimgi Rimning ikki sinfiy toifalari imtiyozli patritsiylar (patricius—«zodagon otani o'gli»), patritsiylar jamoa yer fondidan foydalanish, kuriya komissiyalarida ishtirok etish huquqlariga ega edilar. Ko'p sonli plebeylar esa o'z urugiarini saqlab qolib, rim urug'chilik tashkilotidan tashqarida boiib hech qanday huquqlarga ega emas edilar. Shu sababli patritsiy va plebeylar o'rtasidagi qaramaqarshiliklar yuz yillab davom etdi. Ijtimoiy tabaqalanish jarayonida bir qism plebs boyib ketdi, kambag'allashib qolgan plebeylar, xonavayron bo'lgan fuqarolar hamda ozod qo'yilgan qullar qudratli patritsiylar homiyligiga o'tib ulaiga kliyenni (clients—«qaram kishilar») bo'ldilar. Klient o'z patrani um gini a'zosi boiib unga bo'ysunar edi. So'nggi rim podsholari o'z shaxsiy hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan siyosat olib bordilar. Ular patritsiylaiga qarshi kurashda plebeylardan siyosiy qurol sifatida foydalandilar. [6]

Podsho Serviy Tulliyning islohotlari rim jamiyatini urug' jamoasidan davlatga o'tishda muhim o'rin tutadi. U harbiy islohot va unga bogiiq ssenz (mulk) islohotlarini o'tkazdi. Bu o'zgarishlar natijasida kuriyalar bo'yicha yig'inlarni ikkinchi darajali qilib qo'ygan sentsuriy komissiyalari yetakchi o'ringa chiqib oldi. Podsholik davri so'ngida mulkchilik tugadi. Serviy Tulliy o'tkazgan siyosiy islohotlar bu qaramaqarshiliklarni ma'lum darajada yumshatdi. Serviy Tulliy islohoti urug'chilik tuzumi asoslarini yemirdi. Serviy Tulliy Rimning barcha erkak aholisini (patritsiy va plebeylami) olti mulkiy toifaga bo'ldi. Birinchi toifa 100 000 mis assga teng mulkka ega bo'lgan, II—75 000 ass, III—50 000 ass, IV—25 000 assga, V—11 500 ass qiymatli mulkka ega bo'lishi kerak edi. [7]

Barcha kambag'allar butun boyligi bolalari bo'lgan VI toifaga proletariy (lotincha proles—«avlod»)lami tashkil etdi. Har bir toifa qo'shinga belgilangan miqdorda senturiy

(yuzlik) berishi shart edi: I toifa-og'ir qurollangan piyodalar 80 senturiy, suvoriylar 18 senturiy, jami 98 senturiy; II—22 senturiy, III—20 senturiy, IV-22 senturiy, V-30 senturiy yengil qurollangan piyodalami, VI toifa-1 senturiy, jami olti toifa 193 senturiy (yuzlik) berishi shart edi. Serviy Tulliy xalq yig'inini yangi ko'rinishi senturiya komissiyalarni joriy qildi. Ularda patritsiylar bilan plebeylar ham qatnashdilar. Senturiylarda odamlarning soni bir necha o'ndan (1 toifa) bir necha yuzgacha (proletar senturiylari) tebransada, har bir senturiy ovoz berishda faqat bir ovozga ega edi. I mulk senzi toifasi 193 ovozdan 98 ovozga egalik qilar edi. Shundan xulosa qilgan holda senturiy komissiyalarida hal qiluvchi ovozga mulkdor fuqarolar egalik qildilar. Mulkiy senzdan tashqari yosh senzi ham belgilandi: yoshlami senturiylari (17 yoshdan 46 yoshgacha) harbiy dala xizmatini o'tadilar; keksalar senturiylari (46 yoshdan katta) garnizonlarda xizmat qilar edilar. Qo'shinlar podsho qo'mondonligi ostidagi 4 legiondan tashkil topgan edi. Serviy Tulliy yana ma'muriy-hududiy islohot o'tkazdi, Rim davlati hududi 21 okrugga (er. aw. 241-yildan ularni 35 taga yetdi) bo'lindi. Bu okrugar trib deb (ulardan 4 tasi shahar, qolgan 10 tasi qishloq tribi) ataldi. [8]

Patritsiylar va plebeylar o'rtasida boshdanoq kuchli ijtimoiysiyosiy qarama-qarshiliklar mavjud edi. U Rim erkin aholisini mulkiy belgisiga qarab ajratdi. Rim xalqi «populus romanus» tarkibiga patritsiylardan tashqari plebeylar ham kiritildi. Bu fuqarolarning barchasi siyosiy huquqlarga ega bo'ldi. Aholi ro'yxati asosida u yoki bu kishini mulk, ishlov beriladigan yerni miqdoriga qarab Rim aholisi 6 mulkiy toifaga boindi. Birinchi mulkiy toifa 100 ming ass (pul birligi) mulkka ega bo'lgan fuqarolar kiritildi. Eng awalo, mulkiy belgisiga qarab harbiy majburiyat taqsimlandi. Birinchi toifa og'ir qurollangan piyodalardan 80 senturiy va 18ning artik shakli bilan rim polisi yoki kivitas fuqarolik jamoasini shakllanishi senturiy suvoriylar; qolgan toifalar hammasi bo'lib yengil qurolli piyoda yordamchi qismlar 95 senturiy berish kerak edi. Hammasi bo'lib senturiy komissiyalarga to'planadigan 193 senturiy paydo bo'ldi. Senturiy komissiyalariga kuriya komissiyalarining muhim vakolatlari qonunlarni qabul qilish, mansabdor shaxslarni saylash, urush e'lon qilish va tinchlik bitimi tuzish kabi o'tdi. sh e'lon qilish va tinchlik bitimi tuzish kabi o'tdi. Amaldagi hokimiyat eski patritsiy urug'lari qo'lida saqlanib qoldi. Chunki ular yerning eng ko'p miqdoriga ega bo'lib, birinchi tabaqani tashkil etib sentual komissiyalarda ko'pchilikni 95 % ni qarshi 98 % ni tashkil qiladi. [9]

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Геродот. История в девяти книгах / Пер. Г. А. Стратановского. М.; Л., 1972. («Памятники исторической мысли»; репр. 1993).
2. Авдиев В.И. История Древнего Востока. Москва 1948 .
3. Бухарин М. Д., Ладынин И. А., Ляпустин Б. С., Немировский А. А. История Древнего Востока. — М.: Дрофа, 2009.

4. Всемирная история. Государственное Издательства политической литературы Москва. 1955.
5. Гафуров Б.Г, Цибукидис Д.И Александр Македонский и Восток Изд. «Наука». Главная редакция. Восточной литературы Москва. 1980.
6. Ollomurodov, N. Y. O. G. L. (2023). SOVET HUKUMATINING DINGA NISBATAN MUNOSABATI VA UNING IJTIMOIIY OQIBATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 392-397.
7. Chorshanbiyev, B. R., & Ollomurodov, N. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI XO ‘JALIGI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1 SPECIAL), 417-419.
8. Boytora, C., & Nurali, O. (2023). Amir Temur and the Times of the Temuris Mints and Monetary Policy. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 16, 1-4.
9. Ollomurodov, N. Y. O. G. L. (2023). O ‘ZBEKISTONNING JANUBIY SHAHARLARIDA UY-JOY QURILISHIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 25-28.